

## PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASIDA TIZIMLI VA MADANIYATLI YONDOSHUV

Yo'ldoshev O'tkir Jumaqo'zievich  
Qo'qon davlat pedagogika instituti

### Annotatsiya

Maqolada pedagogika metodologiyasida tizimli va madaniyatli yondoshuv, tizimli taxlil komponentlari, madaniyatli yondoshuv asosida yotuvchi prinsiplar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Metodologiya, yondoshuv, tizimli yondoshuv, madaniyatli yondoshuv, prinsip..

Xar qanday ixtiyoriy pedagogik g'oyani ishlab chiqishda uning ob'ektiv asosi sifatida falsafa turadi va u biron bir jarayonni, jumladan pedagogik jarayonni bilish usullari va umumiy yo'nalishini belgilab beradi. Aynan unda, ilmiy tahlilni amalga oshirishning unversal yo'nalishi deb tizimli tahlil (I. V. Blauberg, V. N. Sadovskiy, E. G. Yudin, L. fon Bertalanfi, A. D. Xoll, R. I. Feydjn) [1] tan olinadi.

Tizimli tahlildagi asosiy xarakteristikalarini ko'rib o'tadigan bo'lsak, A. G. Kuznesovani fikriga ko'ra quyidagilarni ko'rsatish mumkin: 1) qayta ishlash; 2) munosabatlar ko'pxilligi va dinamikligi; 3) ob'ektivlik va sub'ektivlik birligi; 4) murakkab ichki tuzilma(struktura); 5) oldindan aytish mumkinlik(prognozlanuvchanlik) va loyihalalanuvchanlik; 6) oldindan aytish mumkinlik; 7) o'zidan o'zi tashkil bo'lishlik; 8) boshqaruvchanlik; 9) refleksiya; 10) qadriyatga yo'nalganlik; 11) noyoblik; 12) turli tumanlik[2, b.34].

T. A. Ilinani ta'rifi bo'yicha, sistema jarayonni butunligini ta'minlovchi, tashqi muhit bilan aloqadagi, konkret belgilari asosida ajratib olingan va faoliyat ko'rsatish va birgalikda boshqarish maqsadida bir biri bilan birlashtirilgan, yaqin munosabatdagi elementlarni tartiblangan to'plamidan iborat. Sistemani bunday ta'rifi uni simvolik ravishda quyidagi formula ko'rinishda ifodalash imkonini beradi:

$$\Sigma: \{M\}, \{x\}, F, \quad (1)$$

bu yerda  $\{M\}$  – sistemani komponentalari to'plami;  $\{x\}$  – bir biri bilan aloqalar to'plami;  $F$  – sistemani mujassamligi va butunligini ifodalovchi yangi xossasi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, savollarga javob olish uchun fanlararo nuqtai nazarida “turish”(“uyg'onish”) zarur [4, b.57].

Mantiqiy aqliy xulosalar qilib, ularni bizning tadqiqot mavzumizga moslashtirib, tarbiya-o'quv muhiti amaliyotida ahamiyatga ega bo'lgan har qanday innovatsion jarayonlarni real mavjud bo'lgan pedagogik sistemalar bilan bog'lash zarur degan

fikrni olg'a surish mumkin. Bu bizga ushbu tadqiqotimizda tizimli tahlil prinsiplarini qo'llash imkonini beradi.

Bizning tadqiqotda tizimli tahlilni qo'llashni ahamiyati shundaki, u yordamida tadqiqot ob'ektini yanada aniqlashtirish va uni tadqiq qilishning adekvat(o'ziga mos) metodologiyasini ishlab chiqish mumkin bo'ladi. O'rganilayotgan tadqiqot mavzusi sohasidagi "madaniyat" tushunchasi talqiniga asoslanib, uning tizimli mohiyati, tizimli parametrlari va xossalarni tan olish mumkinki, uni undagi jarayonlarda kechadigan va keyingi o'zgarishlarini mantiqan ochuvchi umumtizimli xususiyatlar nuqtai nazaridan ko'rish talab qilinadi. Haqiqatan ham tizimli yondashuvni tatbiq qilish madaniyatni tadqiq qilish bilan band bo'lgan turli bilim sohalaridagi konkret bilimlarni integratsiyasini ta'minlash xususiyatiga ega, natijada bu bizga qo'yilgan masalani yechishga yordam beradi. Aytilgan yondashuvni asosiy prinsiplariga tayanish o'zida turli nazariy va aniq-tadqiqiy materiallarni birlashtirgan bilimlar integratsiyasini ancha to'la ta'minlash imkonini beradi.

Shunday qilib, tizimli yondashuv bizga axborot madaniyati tadqiqot fenomenini taqdim qilishning to'laligini ta'minlashga yordam beradi, bevosita yagona metodologik bazani kiritish orqali uning bugungi kundagi yakkalanganligini bartaraf qiladi, bu uning axborot savodxonlik, axborot tayyorgalik, axborot ta'sirlariga tayyorgarlik va xokazo kabi an'anaviy komponentalarini jamlaydi, "bir butun uning qismlari yig'indisidan afzal" degan naqlga asosan "axborot madaniyatini" yanada "siftli" tushunish imkonini beradi.

Ammo inson shaxsi shakllanishini ko'p aspektli, ko'p darajali va chiziqsiz sistema deb hisoblab, uni asos harakati va determinant almashinuvi davriy xis qilinadi. Bu tadqiqotda biz axborotni egallash va taqdim qilish jarayoni bilan to'ldirib, aytilgan holatni konkretlashtirdik, bunda o'quvchilarning jinsiy balog'at yoshi xususiyatlarini rivojlanganligi bilan tengma-teng ravishda qaralayotgan sub'ekt darajasidagi turli determinant(hal qiluvchi) munosabatlarni afzalligi ta'kidlanadi.

Quyidagi yondashuv ushbu tadqiqot mavzusi doirasida qiymatga ega bo'lib u **madaniylashganlik**(kulturologicheskiy) yondashuvdir (I. Kant, F. Gegel, I.-G. Gerder, E. Kassirer, B. K. Malinovskiy, M. Mid, A. Toynbi, O. Shpengler, N. A. Berdyaev, M. Xaydegger, M. M. Baxtin, S. S. Averinsev, M. K. Mamardashvili, D. S. Lixachev, Yu. M. Lotman, L. N. Gumilev, G. S. Pomerans, V. S. Bibler, M. S. Kagan, K. D. Ushinskiy, M. Montessori, L. N. Tolstoy, V. A. Suxomlinskiy, A. V. Lunacharskiy va b.). O'quvchilarni *axborot madaniyatini* shakllantirish muammosini ko'rsatilgan pedagogik yondashuv yordamida yechish madaniyatni bosh kategoriyalariga murojaat qilishni talab qiladi, an'anaviy talqinda ko'p aspektli va fanlararo tushuncha sifatida namayon bo'ladi, mazmun mohiyatidagi muammolilik ayrim ziddiyatlarni yetarli darajada aniq aniqlaydi, qisman uning ko'p qirrali enanligi bilan asoslanadi.

Bugungi kundagi mavjud ilmiy adabiyotlarni ko'rib, biz tadqiq qilinayotgan fenomen(favqulotda hodisa)ni ta'rifi yetarli darajada ko'p ekanligini aniqladik, ta'riflarni ko'pligi "madaniyat"ni alohida olingan xususiyati ham har bir holda aktualashtirilgani bilan asoslanadi. Ammo, tan olib aytish mumkinki, tadqiq qilinayotgan tushunchani talqinlarini tahlili quyidagini anglashga olib keladi, ya'ni u naqadar keng ko'lamlilik berilgan ta'riflarni hech birini mukammal deb bo'lmaydi.

Bevosita umumta'lim jarayonida qaralayotgan yondashuvni asosini tashkil qiluvchi asosiy prinsiplar sifatida quyidagilarni aytish mumkin: 1) *madaniyatga moslik prinsipi* (A. Disterveg, P. Florenskiy), u tarbiya va madaniyatni bir muhit deb qarab, ular orasidagi, o'quvchi shaxsini rivojlanishi uchun imkon beradigan o'zaro munosabatlar xarakterini o'rnatadi va o'quvchidan "madaniyatli inson"ni tarbiyalaydi; 2) *mahsuldorlik prinsipi(prinsip produktivnosti)* (N. B. Крылов) [3, b.34] ta'lim tizimida o'quvchilarning amaliy faoliyatidagi ijodiy potensialini namoyon qilish uchun sharoitlar yaratib, ta'lim tizimini mahsuldorlik imkoniyatini ko'rsatishga imkon beradi; 3) *multimadaniyatlilik prinsipi (prinsip multikulturnosti)* ta'lim jarayonidagi madaniyatni qo'p qirrali ekanini namoyon qilish qobiliyatlaridan bo'lib, u o'zaro munosabatlarni turli tumanligida namoyon bo'ladi va unda madaniyat vositalari orqali o'quvchilarda sabr-toqatlilik(bardoshlilik, chidamlilik) fazilatini shakllantirish uchun yanada optimal sharoitlar yaratiladi; 4) *samarador va emotsional omillarni birligi va uyg'unligi prinsipi* (B. M. Nemenskiy, V. A. Alekseeva) *prinsip yedinstva i garmonizatsii ratsionalnogo i emotsionalnogo faktorov* (B. M. Nemenskiy, V. A. Alekseeva) tarbiya jarayonini shaxsni talab-motivatsiya sohasiga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sifatida qarashga tayanadi.

Aytilganlarni umumlashtirib, qaralayotgan yondashuv doirasida quyidagicha xulosa qilish mumkin, ya'ni madaniylashganlik yondashuvi aniq bir jamiyatdagi milliy va boshqa an'analar orqali shakllangan madaniyat asoslariga tayanib, murakkab tarbiyaviy masalani yechish uchun kompleks zaruriy sharoitlar yaratishga imkon beradi, ularni saqlash va namoyon qilishga ta'sir qiladi. Ushbu tadqiqot ishida biz tomondan madaniylashganlik yondashuvi sifatida ancha ta'sirchan pedagogik usullar majmuasi ko'riladi, ular yordamida anglashning shunday darajasiga erishiladiki, unda inson ijtimoiy va ruhiy faoliyatining istagan sohasini tahlil imkoni bo'ladi, bunda uning tashkil qiluvchilarini madaniylik tushunchalari(madaniyat, madaniy qiyofa, ko'rsatma, qoida, qadriyat, hayot tarzi, madaniy faoliyat va boshqalar)ning mohiyatidagi belgilar orqali o'tkazib, uni quyidagi uchta: o'quvchi shaxsi—ta'lim—madaniyat, tashkil qiluvchini o'zaro ta'sirini anglash bilan bog'laydi. Madaniylashganlik yondashuvini o'quvchilarni axborot madaniyatini shakllantiradigan metodologik asos shaklida qo'llash quyidagilar uchun imkon yaratadi:

- 1) pedagogik jarayonni amalga oshirish yo'lida qadriyat yo'nalishi sifatida ishtirok etuvchi, o'quvchilarning ideal va normativlar yig'indisidan iborat bo'lgan, o'quvchilar qadriyatlarining mukammal ierarxik sistemasini yaratishda;
- 2) har bir o'quvchini shaxsiy potensialini maksimal darajada ochish va rivojlantirishga imkon beradigan, o'quvchi shaxsini keyingi o'qishiga ob'ektiv yaqin sharoitni yaratish maqsadida ularni individual madaniy xususiyatlari bo'yicha ajratishga yo'naltirilgan pedagogik munosabatlarni tashkillashtirishda;
- 3) o'quv jarayonida ilg'or pedagogik prinsiplar, shakllar, usul va vositalarni har bir o'quvchini sub'ektiv pozitsiyasini yaratuvchi qurol ekanini hisobga oladigan pedagogik jarayonlar yig'indisini tashkillashtirishda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. . Blauberg, I. V. i dr. *Системный подход* / I.V. Blauberg, V.N. Sadovskiy, E.G. Yudin // *Novaya filosofskaya ensiklopediya / In-t filosofii RAN; Nas. obshchestv.-nauch. fond; Preds. nauchno-red. sojeta V. S. Styopin, zamestiteli preds.: A. A. Guseynov, G. Yu. Semigin, uch. sekr. A. P. Ogursov. — 2-ye izd., ispr. i dopol. — M.: Mysl, 2010. — 300s.*
2. Kuznesova, A.G. *Razvitie metodologii sistemnogo podxoda v otechestvennoy pedagogike: monografiya* / A.G. Kuznesova - *Xabarovsk: Izd-vo XK IPPK PK, 2001. — S.34-35.*
3. Йулдошев, У., & Жуманкузиев, У. (2021). Определение ведущих педагогических закономерностей и основополагающих принципов формирования информационной культуры детей школьного возраста. *Общество и инновации*, 2(5/S), 68-76.
4. Жуманкузиев, У., & Йулдошев, У. (2021). Подходы обучения языкам программирования в общеобразовательных школах. *Общество и инновации*, 2(5/S), 344-350.
5. Yuldoshev, U., & Zhumankuziev, U. *Determination of the leading pedagogical laws and fundamental principles of the formation of the information culture of school-age children. *Society and Innovation*, 2, 68-76.*
6. Жумакузиевич, Ю. У. (2022). СЛЕДУЯ ПРИНЦИПАМ ОБЩЕНИЯ В КОММУНИКАТИВНОЙ ДИДАКТИКЕ. *Репозиторий открытого доступа*, 8(12), 573-575.
7. Джумакузиевич, Ю. У. (2022). Методология педагогики как основа для формирования методологической культуры учителя. *Журнал позитивной школьной психологии*, 6(11), 2019-2022.
8. Жумақозиевич, У. У. (2022). Системный подход в образовании как методологическая проблема. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ*

СОЦИАЛЬНЫХ НАУК И МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
ISSN: 2277-3630 Импакт-фактор: 7.429, 11(09), 269-271.

9. Mansurjonovich, J. M. (2022). CURRENT STATUS OF THE SCIENCE OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM, EXISTING PROBLEMS AND SOLUTIONS, PRINCIPLES AND CONTENT OF THE SCIENCE ORGANIZATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 327-331.
10. Mansurjonovich, JM, & Sattorovich, YS (2023). MAXSUS IZLAMALARDAN FOYDALANISH TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING MUHIM AVTOZYATLARI. *Ochiq kirish ombori*, 4 (3), 126-133.
11. Mansurjonovich, J. M. (2023). Designing an electronic didactic environment to ensure interdisciplinary integration in the teaching of " Informatics and information technologies" during professional education. *Confrencea*, 11(11), 78-82.
12. Mansurjonovich, J. M. (2022). Professional Educational Institutions Theoretical and Practical Basis of Development of the Content of Pedagogical Activity of Teachers of " Information and Information Technologies". *Texas Journal of Engineering and Technology*, 15, 49-53.
13. Davronovich, A. D., & Mansurjonovich, J. M. (2023). IMPORTANT ADVANTAGES OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN A DIGITAL TECHNOLOGY ENVIRONMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(2), 149-154.
14. Mansurjonovich, J. M., & Davronovich, A. D. (2023). INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IS AN IMPORTANT PART OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS. *Open Access Repository*, 9(1), 93-101.
15. Melikyzievich, S. I., Turdalievich, M. I., Shukurovich, M. S., & Mansurovich, Z. M. (2022). THE METHOD OF REFERENCE TESTS FOR THE DIAGNOSIS OF DIGITAL DEVICES. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
16. Mansurjonovich, J. M. Description of the Methodological Basis for Ensuring Interdisciplinary Continuity of the Subject" Computer Science and Information TECHNOLOGY" in Vocational Education. *JournalNX*, 7(10), 223-225.
17. Mansurjonovich, J. M. (2021). Experience Of Cambridge Curricula In Ensuring The Continuity Of Curricula In The Field Of "Computer Science And Information Technology" In The System Of Professional Education. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research*, 3(11), 26-32.

18. Juraev, M. M. (2021). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF VOCATIONAL EDUCATION THROUGH INTERDISCIPLINARY INTEGRATION INTO THE VOCATIONAL EDUCATION SYSTEM. In НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 110-112).
19. Juraev, M. M. ZY Xudoyberdiyev Theoretical analysis of the continuity model of computer science and information technology in the System of professional education. *European Scholar Journal (ESJ)//ISSN (E), 2660-5562.*
20. Juraev, M. M. (2022). Theoretical and practical principles of improving the content of the pedagogical activity of ICT teachers of professional educational institutions in the conditions of information of education.
21. Mansurjonovich, J. M. (2022). METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE CONTENT OF TRAINING FUTURE ICT TEACHERS IN THE CONDITIONS OF DIGITAL TRANSFORMATION OF EDUCATION. АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ, 9.
22. Juraev, M. M. (2021). OA Qo 'ysinov Description of the methodological basis for ensuring interdisciplinary continuity of the subject "Computer Science and Information Technology" in vocational education. *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed, 7(10).*
23. Juraev, M. M. (2022). The value of open mass competitions in the process of digitalization of extracurricular activities of schoolchildren. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 338-344.*
24. Jo'rayev, M. (2022). Professional ta'lim jarayonida fanlararo uzvilik va uzliksizlikni ta'minlash o 'quvchilari kasbiy tayyorgarligining muhim omili sifatida. *Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: Muammolar va yechimlar, 1(29), 43-46.*
25. Juraev, M. M. (2022). Prospects for the development of professional training of students of professional educational institutions using electronic educational resources in the environment of digital transformation. *Academicia Globe: Inderscience Research, 3(10), 158-162.*
26. Mansurovich, B. M., & Ogli, Y. M. D. (2022). PHP DASTURLASH TILI VA UNING IMKONIYATLARI. *Ta'lim fidoyilari, 18(5), 77-80.*
27. Application Of Information Compression to Create New Hash Functional Algorithms of Rectangal Matrix Introduction. AS Sharifovich, HX Maxmudovich, BM Mansurovich - *Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 2022*
28. Protocol For Electronic Digital Signature of Asymmetric Encryption Algorithm, Based on Asymmetric Encryption Algorithm Based on the Complexity of Prime Decomposition of a Sufficiently Large Natural Number AS Sharifovich, HX

- Maxmudovich, BM Mansurovich - Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 2022
29. IMPLEMENTING MINIMUM GRAPH COVERING IN PYTHON MM Aripov, SS Axmadaliyev, XM Xasanov, MM Botirov - Ann. For. Res, 2022
30. Electronic Digital Signature Protocol of an Asymmetric Encryption Algorithm Based on the Complexity of Performing Actions About Elliptic Curve Points and Multiplication of Matrices with a Parameter on a Final Field AS Sharifovich - Texas Journal of Engineering and Technology, 2022
31. ELECTRONIC DIGITAL SIGNATURE PROTOCOL ON THE BASIS OF ASYMMETRIC ENCRYPTION ALGORITHM BASED ON THE DIFFICULTY OF DISCRETE LOGARIFICATION AND MULTIPLICATION OF MATRIXES WITH A PARAMETER ON A FINAL FIELD SS Akhmadaliev - Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 2022
32. Maxmudovich, X. X. (2022). CULTURE OF THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 268-271.
33. Makhmudovich, K. K. (2022). Building Models of Their Functions According to Single-Valued and Multivalued Compatibility Truth Table of Cryptographic Accelerations. Open Access Repository, 9(12), 44-49.